

## Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-mart oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 3 275,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3 275,4</b>	<b>108,8</b>
G'uzor tumani	246,5	134,8
Dehqonobod tumani	54,7	110,8
Qamashi tumani	51,8	103,1
Qarshi tumani	192,7	122,9
Koson tumani	152,0	109,7
Kitob tumani	160,7	109,5
Mirishkor tumani	80,0	237,5
Muborak tumani	105,0	102,5
Nishon tumani	66,1	47,1
Kasbi tumani	54,5	117,4
Ko'kdala tumani	17,1	148,8
Chiroqchi tumani	114,2	64,0
Shahrisabz tumani	100,4	155,1
Yakkabog' tumani	87,6	100,2
Qarshi sh.	760,1	105,6
Shahrisabz sh.	129,9	100,8
<b>Taqsimlanmaydigan hajm</b>	<b>902,2</b>	<b>253,8</b>

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,7 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,9 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,4 % ulushni va 2025- yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	543,0	173,7	188,5
<i>o'sish sur'ati, %</i>	125,0	110,7	118,4
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	838,6	281,2	120,4
<i>o'sish sur'ati, %</i>	89,2	98,0	78,3
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1130,0	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	113,0	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

### III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 905,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 168,1 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 9,7 % ga ko'payib, 27,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 37,9 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 84,2 % ni tashkil etgan holda 1240,2 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 34,5 % ni yoki 1130,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil etdi.

#### Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>905,2</b>	<b>1240,2</b>	<b>1130,0</b>	<b>168,0</b>	<b>84,2</b>	<b>113,0</b>
G'uzor tumani	123,8	86,1	36,6	3,7 m	74,2	109,8
Dehqonobod tumani	1,6	11,2	41,8	154,3	53,1	154,3
Qamashi tumani	12,2	18,3	21,4	6,9 m	52,1	159,2
Qarshi tumani	61,4	85,7	45,6	5,0 m	70,7	195,1
Koson tumani	20,4	77,8	53,8	2,6 m	99,4	102,7
Kitob tumani	51,6	40,7	68,4	7,0 m	50,4	116,6
Mirishkor tumani	61,1	11,2	7,7	36,9 m	55,9	64,8
Muborak tumani	57,7	39,0	8,3	117,3	93,0	73,8
Nishon tumani	34,4	19,8	11,9	45,4	34,6	159,9
Kasbi tumani	18,4	17,4	18,6	5,4 m	66,2	111,8
Ko'kdala tumani	1,0	13,3	2,7	-	2,2 m	50,7
Chiroqchi tumani	43,3	36,4	34,5	100,8	38,3	85,2
Shahrisabz tumani	12,3	62,2	25,9	8,6 m	141,6	133,7
Yakkabog' tumani	10,5	40,8	36,3	6,2 m	77,5	109,6
Qarshi sh.	267,5	449,7	42,8	114,3	101,7	98,7
Shahrisabz sh.	47,2	50,9	31,8	378,3	72,4	69,0
<b>Taqsimlanmaydigan hajm</b>	<b>80,8</b>	<b>179,6</b>	<b>641,8</b>	<b>154,9</b>	<b>113,2</b>	<b>115,2</b>

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor tumanida (2025- yilning mos davriga nisbatan 36,9 marta) oshgan) Shahrisabz tumanida (8,6 marta), Kitob tumanida (7,0 marta) va Qamashi tumanida (6,9 marta) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Ko'kdala tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,2 marta), Shahrisabz tumani (141,6 %) va Qarshi shahrida (101,7 %) kuzatildi.

#### **IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'iy nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
G. Ziyatova  
75 221-32-47 (7020)

**Manzil:**  
180100, Qarshi shahri.,  
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy

---